



# SHIFOKOR SO'ZI

SAMARQAND DAVLAT  
TIBBIYOT INSTITUTI  
NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 29 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI



**Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar!**

**Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!  
Muhtaram vatandoshlar!**

Avvalo, siz, azizlarni, sizlar orqali butun xalqimizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi va Vatan himoyachilari kuni bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Ushbu qutlug' ayyom tom ma'nodagi umumxalq bayramiga, azaldan xalqimizga xos bo'lgan vatanparvarlik, mardlik va jasurlik kabi yuksak fazilatlar timsoliga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi.

Ta'kidlash kerakki, milliy armiyamizning kuch-qudrati azmu shijoatli va har ishda yetuk salohiyatli harbiy xizmatchilarimizning, bag'rikeng va olijanob xalqimizning birligi va hamjihatligidir. Bu haqiqatni bugungi kunda har qachongidan ham chuqur his etmoqdamiz.

Ishonchim komilki, ana shunday buyuk ma'naviy qudrat manbai bor ekan, el-yurtimizning tinch va osoyishta hayoti, Vatanimiz mustaqilligiga hech qanday yovuz kuch rahna sololmaydi, demokratik islohotlarimiz yo'lidan hech qachon ortga qaytara olmaydi.

Biz bahodir va dovyurak harbiylarimiz bilan - o'zining muqaddas qasamyodiga sodiq qolib, xizmat burchini yerda ham, ko'kda ham sharaf ila ado etayotgan yurtimizning zabardast o'g'lonlari bilan

haqli ravishda faxrlanamiz.

Fursatdan foydalanib, Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan qo'rqmas va haqiqiy vatanparvar askar va ofitserlarning ota-onalariga, shuningdek, harbiy hayotning butun quvonch va tashvishlarini turmush o'rtoqlari bilan baham ko'rib kelayotgan mehribon va sabr toqatli rafiqalariga ulkan minnatdorlik bildiraman.

Biz sizlarning timsolingizda milliy armiyamizga tog'dek tayanch bo'lib turgan buyuk ma'naviy kuchni ko'ramiz. Bugungi ulug' ayyomda sizlarning ham Vatanimizning mudofaa qudratini oshirishda munosib hissangiz borligini yana bir bor katta mamnuniyat bilan e'tirof etamiz.

**Qadrli do'stlar!**

Biz bundan to'rt yil oldin O'zbekistonda harbiy qurilish sohasini tubdan isloh qilish bo'yicha eng muhim va ustuvor yo'nalishlarni belgilab olgan edik. Shu asosda mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish uchun keng ko'lamli ishlarni amalga oshirmoqdamiz.

O'tgan qisqa davrda yangi Mudofaa doktrinasi qabul qilindi, harbiy tuzilmalarning tarkibi va vazifalari chuqur qayta ko'rib chiqildi, qo'shinlarni boshqarish tizimi takomillashtirildi, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va texnika vositalari bilan ta'minlash bo'yicha o'ta muhim loyihalar amalga oshirildi.

Tariximizda birinchi marta o'z mohiyatiga ko'ra noyob tizim - harbiy-ma'muriy sektorlar tashkil etildi. Bunday ish usuli joylardagi davlat hokimiyati organlarini mamlakatimiz mudofaa qudratini mustahkamlashga faol jalb etish uchun imkon berdi. Eng muhimi, "Armiya va xalq - bir tanu bir jondir" degan ulug' g'oyani amalda ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz natijasida, bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari respublikamiz mustaqilligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishning chinakam kafolati bo'lmoqda.

Eng asosiysi, milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga qarshi munosib zarba bera oladigan el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalashning muhim institutiga aylandi.

Albatta, o'tgan 2020 yil jahondagi barcha davlatlar qatori mamlakatimiz uchun ham jiddiy sinovlar yili bo'ldi. Biz koronavirus pandemiyasining tahdidiga, shuningdek, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida kutilmagan tabiiy va texnogen ofatlarga duch keldik.

Ana shunday g'oyat keskin sharoitda Qurolli Kuchlarimiz sobiqqiron Amir Temur bobomizning "Millatning dardiga darmon bo'lmoq - chin vazifangizdur", degan ezgu da'vatini o'ziga shior qilib oldi.

Ular xalqimizga yanada yaqin bo'lib, safarbarlikni oshirib, qisqa muddatlarda o'z oldiga qo'yilgan muhim vazifalarni munosib ado etganini barchamiz cheksiz minnatdorlik bilan qayd etamiz.

Ayniqsa, bu jarayonda harbiy shifokor va xizmatchilarimiz, huquq-tartibot organlari va qutqaruv xizmati xodimlari haqiqiy mardlik va jasorat namunasini, yuqori kasbiy mahoratni namoyon etganlari alohida tahsin va e'tirofga sazovordir.

Bunday murakkab vaziyatda Qurolli Kuchlar Harbiy tibbiyot akademiyasining tashkil etilgani aholi salomatligi va hayotini muhofaza qilish borasida oldimizga qo'yilgan dolzarb vazifalarni tezkor va samarali hal etish imkoni beradi.

**davomi 2 sahifada...**

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 29 YILLIGI VA VATAN HIMOYACHILARI KUNI MUNOSABATI BILAN BAYRAM TABRIGI

...davomi, boshi 1 sahifada.

Mintaqamizda yagona bo'lgan ushbu yangi akademiya harbiy tibbiyot sohasida, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etadigan yuqori malakali va ixtisoslashgan kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Akademiyada jahon andozalariga mos innovatsion ishlanmalar hamda ilg'or texnologiyalarga asoslangan o'quv-laboratoriya xonalari va eng zamonaviy moddiy-texnik baza yaratilmoqda.

Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyatini yanada oshirish imkonini berdi.

Pahlavon va botir o'g'lonlarimiz xalqaro harbiy-o'quv mashg'ulotlari, armiya va sport musobaqalarida dunyodagi yetakchi mamlakatlarning harbiy xizmatchilariga aslo bo'sh kelmasdan, g'alabaga bo'lgan irodasini yaqqol namoyish etib, buyuk ajodlarimizning munosib vorislari ekanini isbotlamodalar.

**Muhtaram vatandoshlar!**

Biz global iqtisodiy inqiroz ta'siriga qaramasdan, harbiy xizmatchilarimiz va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, harbiy shaharchalarni obodonlashtirish, ularda zamonaviy infratuzilmalar barpo etish bo'yicha tizimli ishlarimizni izchil davom ettirayapmiz.

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun qo'shimcha ravishda ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi. 3 mingdan ziyod harbiy pensionerlar ishga joylashtirildi. Harbiy xizmatchilarning mingdan ortiq

farzandlariga oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishlari uchun davlat grantlari ajratildi.

Hech shubhasiz, "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da bu boradagi ishlarimizni yanada kuchaytirib, mutlaqo yangi bosqichga ko'taramiz.

Yaqinda bo'lib o'tgan O'zbekiston Yoshlari forumida, Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomamizda ham ushbu yo'nalishdagi chora-tadbirlarni aniq belgilab berdik.

Yangi O'zbekistonda yosh avlodni jismoniy va ma'naviy sog'lom, Ona Vatanga fidoyi va jonkuyar insonlar bo'lib ulg'ayishi, shonli tariximizdan ibrat olib, undan faxrlanib yashashlari uchun barcha kuch va imkoniyatimizni to'liq safarbar etamiz.

Jahonda mafkuraviy kurashlar keskin tus olayotgan, axborot makonida turli xavf-xatar va tahdidlar tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda barchamiz doimiy ogoh va sezgir, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishimiz kerak.

Ayniqsa, adashib, yot g'oyalari ta'siriga tushgan shaxslar va ularning farzandlarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish va ulami sog'lom turmush tarziga, to'g'ri yo'lga qaytarishda harbiy xizmatchilarimiz davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi ishlarni yanada kuchaytirishi lozim.

**Hurmatli mard va jasur Vatan himoyachilari!**

Bugun dunyoning olis va yaqin mintaqalarida murakkab mojaro va to'qnashuvlar davom etayotgan bir paytda

jonajon O'zbekistonimizda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash borasidagi ishlarimizni yanada samarali tashkil etishimiz shart.

Xususan, mudofaa qobiliyatimizni mustahkamlash, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnikalar bilan ta'minlash, bo'linmalarni boshqarishda axborot texnologiyalarini keng qo'llash, jangovar tayyorgarlik va kasbiy mahoratni oshirish - bundan keyin ham ustuvor vazifalarimiz bo'lib qoladi.

Hech shubhasiz, birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz bilan ana shunday ezgu maqsad va marralarga erishishga, xalqimizning tinch mehnati, osoyishta hayotini, yurtimizning musaffo osmonini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga har tomonlama qodirmiz.

**Hurmatli do'stlar!**

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni bilan siz, azizlarni va oila a'zolaringizni yana bir bor chin yurakdan tabriklayman.

Barchangizga mustahkam sog'liq, oilaviy baxt va saodat, sharaflari va mas'uliyatli faoliyatingizda ulkan zafarlar tilayman.

Xalqimizning yuksak ishonchi va hurmat-ehtiromi sizlarga hamisha yor bo'lsin!

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Prezidenti,**  
**Qurolli Kuchlar Oliy Bosh**  
**Qo'mondoni**

## 14 YANVAR - VATAN HIMOYACHILARI KUNIGA BAYRAM TABRIGI!



Hurmatli professor-o'qituvchilar, ishchi xodimlar va talabalar! Sizlarni barchalaringizni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 29 yilligi hamda Vatan himoyachilari Kuni bilan chin qalbdan tabriklayman!

Pandemiya boshgangandan buyon institutimizni ko'plab o'qituvchilari va xodimlari koronavirus infeksiyasi bilan olib borayotgan kurashda faol bo'lib, mamlakatimizda osoyishtalik yana xukmron bo'lishiga o'zlarini munosib hissalarini qo'shdilar va so'zsiz haqiqiy Vatan himoyachilariga aylandilar.

Yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi uchun butun borlig'ini bag'ishlab xizmat qilayotgan qadrli harbiylarimizga esa alohida minnatdorlik bildiraman!

Barchalaringizga sihat-salamatlik, oilalaviy farovonlik, ishlaringiz va kasbu koringizga omadlar doim yor bo'lishini tilab qolaman! Bayram muborak bo'lsin!!!

**SamDTI rektori, prof. J.A. Rizaev**

### STOMATOLOGIYA FAKULTETI KAFEDRALARI XODIMLARI VILOYAT TUMANLARIDA TIBBIY KO'RIKLAR O'TKAZDILAR

Mamlakatimiz tibbiyot tizimi oldida hozirgi vaqtda aholi salomatligini muhofazalashga yo'naltirilgan ishlar ko'lamini yanada kengaytirish, tibbiy-profilaktika tadbirlarini yanada takomillashtirish, fertil yoshdagi ayollar, homiladorlar, bolalar, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan shaxslar, yolg'iz keksalar, nogironlar, surunkali kasalligi bor, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan bemorlar holidan xabar olish va tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirish kabi maqsadlar qo'yilgan. Joylarda aholini sifatli tibbiy ko'riklarini o'tkazish va sog'lom turmush tarzi asoslarini

tushuntirish ishlarida Samarqand davlat tibbiyot instituti xodimlari va talabalari ham munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Sog'liqni saqlash tizimini birlamchi bo'g'inlariga ko'maklashish, ko'rsatayotgan tibbiy yordam sifatini ko'tarish maqsadida otorinologiya va 2-son stomatologiya kafedralarini xodimlari Urgut va Kattaqo'rg'on tumanlari hamda Kattaqo'rg'on shahrida bo'ldilar.

Institutni otorinologiya kafedrasini mudiri professor N.J. Xushvakova rahbarligida viloyatimizni Urgut tumani Quyi Tegana qishlog'idagi 81-maktabida profilaktik ko'rik

o'tkazildi, stomatologiya fakulteti dekani A.A. Axmedov va 2-son stomatologiya kafedrasini assistenti U.A. Xolboyev tomonidan esa tumandagi 107-sonli umumta'lim maktabining o'quvchilarida stomatologik profilaktika muolajalari o'tkazildi. Tashkil etilgan ko'riklar va mutaxassislar tomonidan berilgan konsultatsiyalar aholi vakillari va tibbiyot xodimlari tomonidan minnatdorchilik bildirildi.

Institutni otorinologiya kafedrasini xodimlari 5 va 6 kurslar talabalari klinik amaliyot o'tayotgan Kattaqo'rg'on tumani va Kattaqo'rg'on shahrida ham bo'ldilar. Institut talabalari birlashtirilgan xudda mahalliy mutaxassislar bilan birgalikda aholini xatlov va antropometriyadan o'tkazish, aholi o'rtasida "Yuqumli bo'lmagan kasalliklar (yurak-qon tomir, nafas olish yo'llari kasalliklari, qandli diabet va semizlik) haqida tushuncha va uning profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlash, to'g'ri ovqatlanish tamoyillarini tatbiq qilish, jismoniy faollik va uning ahamiyati to'g'risida targ'iboti, xuddagi ahvoli og'ir va murakkab bemorlarni aniqlab, ularga mas'ul bo'lgan professor-o'qituvchilar ko'rigidan o'tkazishni tashkillash kabi ishlar bilan shug'unlanmoqdalar. Institut xodimlari joylarda tibbiy ko'rik hamda talabalar va tibbiyot muassasalari xodimlari uchun mahorat-darslarni ham o'tkazdilar.

**I. SHAMATOV**  
Otorinologiya kafedrasini  
assistenti



### ПРАЗДНИЧНАЯ ВСТРЕЧА В ЧЕСТЬ ДНЯ ЗАЩИТНИКОВ РОДИНЫ ПРОШЛА В САМГМИ

12 января 2021 года в честь 29-летия образования Вооружённых Сил Республики Узбекистан и праздника "14 января - День защитников Родины" в большом зале собраний Самаркандского государственного медицинского института состоялась торжественная встреча. На праздничной встрече приняли участие военнослужащие школы подготовки младших специалистов ВС РУз, военной оркестр ЦВО, воспитанники военизированной группы ДОУ №121 и детского дома №1 г.Самарканда, преподаватели, курсанты кафедры военно-медицинской подготовки и студенты СамГМИ.

Торжественная часть началась внесением Государственного Флага и исполнением Государственного Гимна РУз. Выступивший с приветственным обращением к участникам ректор института проф. Ж.А. Ризаев тепло поздравил всех с праздником Дня защитника Родины, отметил особое место и роль военной кафедры института в патриотическом воспитании студентов. От имени руководства института представителям школы подготовки младших специалистов ВС РУз, военного оркестра ЦВО, ДОУ №121 и детского дома №1, а также преподавателям кафедры военно-медицинской подготовки СамГМИ были

преподнесены памятные подарки.

В процессе творческой части встречи воспитанники военизированной группы ДОУ №121, детского дома №1 представили красочные представления с исполнением патриотических песен и национальных плясок, а курсанты кафедры института показали свою боевую выpravку и работу с оружием, также интерес участников вызвали подготовленная экспозиция школы подготовки младших специалистов ВС РУз. Праздничное настроение участникам встречи также добавили выступления Военного оркестра ЦВО и студентки института с песней "Молодой лейтенант".

### ТОРЖЕСТВА ПРАЗДНИКА "14 ЯНВАРЯ - ДЕНЬ ЗАЩИТНИКА РОДИНЫ" В САМАРКАНДЕ

Общенародный праздник "14 января - День защитника Родины" и 29-летие со дня создания Вооружённых Сил Республики Узбекистан были широко отмечены в Самарканде.

Представители Самаркандского государственного медицинского института приняли активное участие на торжественном возложении цветов к памятнику великого государственного деятеля и полководца Амира Тимура в г.Самарканде. Празднества продолжились торжественным парадом военной техники, показательными

выступлениями военнослужащих Вооружённых Сил и правоохранительных органов. В честь праздника также были проведены показательные спортивные выступления учащейся молодёжи.

Торжественность мероприятия, боевая выpravка и образцовость исполнения боевого строевого шага вызвали большое воодушевление участников торжественных мероприятий, вызвали чувство гордости за национальную армию страны, твёрдо стоящую на страже мира и спокойствия нашего народа.



## TURKIYALIK HAMKASBLAR INSTITUT LABORATORIYALARINI MODERNIZATSIYALASHGA KO'MAKLASHADILAR



2021 yil 15 yanvar kuni Samarqand Davlat tibbiyot instituti rahbariyatini "MosLab" tibbiyot innovatsion kompaniyasi rahbari Osman Bashan va Anqara Davlat tibbiyot universiteti professori, Anqara shahar shifoxonasi patologiya laboratoriyasi mudiri Faruk Ko'ksal (Turkiya) bilan onlayn tarzda muloqoti o'tkazildi.

SamDTI rektori prof. J.Rizaev janob Osman Bashanni bo'lib o'tgan tashrifi samarali ekanligini, turkiyalik hamkasblar ikki tomonlama hamkorlikga tayyor ekanliklarini bildirdilar. Iliq suhbat davomida tomonlar institutni klinikalarida patologik laborator xizmatning salohiyatini oshirish uchun yangi zamonaviy qurilmalar bilan jihozlash hamda turkiyalik mutaxassislar yordamida xodimlar malakasini oshirish chora-tadbirlarini muhokama qildilar.

Samarali muloqot yakunida tomonlar ikki tomonlama hamkorlikka o'zaro yo'lga qo'yish uchun tez orada memorandum imzolash va institutimiz klinikalarida eng zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan laboratoriya yaratish bo'yicha kelishib oldilar.

## В САМГМИ ПРОШЛА ПРЕЗЕНТАЦИЯ ЖУРНАЛА МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА "ANATOMICA"

В Малом зале собраний Самаркандского государственного медицинского института прошла презентация глянцевого журнала медицинского туризма "ANATOMICA"

Данный журнал основан при ННО "Medtravel global system", имеющей целью объединить крупные ответственные медицинские клиники, санатории и туристические компании, увеличивать спрос на их услуги не только внутри, но и за пределами Узбекистана.

Презентацию журнала для

сотрудников клиники №1, сотрудников кафедр, магистрантов и клинических ординаторов провела главный редактор журнала Барно Икрамова. В своём выступлении она отметила, что выходящий на узбекском и русском языках журнал представляет собой сборник мнений экспертов, полезных советов, передовых технологий и реальных историй о культуре здоровья, красоте и качестве жизни. Сегодня, когда в вопросах общей и эстетической медицины



доступна абсолютно любая информация, все равно ощущается потребность в обоснованных и объективных советах компетентного проверенного специалиста. Журнал был создан для повышения медицинской грамотности населения и доверия к медицинским услугам в стране. На состоявшейся встрече также выступила Гульнара Радулова, презентовавшая возможности и потенциал компании "DEKALaser.uz",

специализирующейся на продаже и обучении лазерного медицинского оборудования. В выступлении было отмечено, что поставляемое медицинским учреждениям республики оборудование соответствует европейским стандартам, что позволяет проводить коррекцию и оперативные вмешательства на самом высоком мировом уровне.

Презентации прошли в интерактивном режиме, и гости ответили на все многочисленные вопросы заинтересованной аудитории.

## BOLALAR UCHUN ONA SUTINING AFZALLIGI

Oziqlanishni toʻgʻri tashkil etish muammosi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega boʻlib, insoniyatning keyingi rivojlanishini belgilaydi.

Bolalar axolisining sogʻlomlik holati, kasallanish va oʻlim darajasi, toʻgʻri tarbiya va parvarish bilan bir qatorda, shaxsiyatning uygʻun rivojlanishini taʼminlaydigan, immunitetni oshiradigan, bola tanasining fiziologik ehtiyojlarini qondiradigan mutanosib, sifatli va ratsional ovqatlanishga bogʻliq.

Tabiatdan chaqaloqning ehtiyojlaridan kelib chiqib, yagona moslashtirilgan ozuqa bu ona sutidir.

Ona suti erta yoshdagi bolalar uchun oziqlantirishda oltin standart boʻlib, bolaning sogʻlom oʻsishi va rivojlanishini qoʻllab-quvvatlash uchun kerakli va foydali moddalarning muvozanatini taʼminlaydi.

Ona sutida oʻsish omillari mavjud boʻlib, ular bolani uygʻun va yoshga mos rivojlanishiga imkon beradi.

Ona sutida ichak mikroflorasini qoʻllab-quvvatlovchi noyob prebiyotikalar mavjud.

Prebiyotikalar ichakdagi foydali mikroorganizmlarning koʻpayishiga faol yordam beradi.

Etilgan ona sutining asosiy tarkibiy qismi zardob oqsillari - albumin, globulinlardir. Ular bola qon zardobidagi oqsillar bilan bir xil boʻlib, oʻzgarmagan holda ichaklardan suriladi; sigir sutidan ona sutining asosiy oqsil tarkibining muhim oʻziga xos farqi, albumin-globulin fraktsiyalari oʻrtasidagi nisbatdadir. Ona sutida mayda dispersli oqsillar (ular nisbatdan osonroq xazim boʻladi) va kazeinogen (xazim boʻlishi qiyinroq) (yirik yaʼni yuqori molekulyar dispersli oqsil) oʻrtasidagi nisbat, ona sutida 4:1 va sigir sutida 1:4 ni tashkil qiladi.

Onaning sutida koʻp miqdorda taurin va sistin aminokislotalari mavjud boʻlib, u bosh miya neyronlarining shakllanishi uchun zarurdir.

Koʻkrak sutida yogʻlarning asosiy qismini

triglitsridlar (98%) tashkil qiladi. Shuningdek faqat ona sutidagina lipaza fermenti xam mavjud boʻlib, u sut tarkibidagi yogʻlarning 90-95% soʻrilishini dastlabki 2 soat ichida taʼminlaydi, sigir sutida esa yogʻlarning surilishi ona sutiga nisbatdan kam 60% ga teng.

Yogʻlar ona sutining oʻzgaruvchan tarkibiy qismi boʻlib, sutka davomida oʻzgarib turadi.

Baʼzi onalarda yogʻlarning miqdori emizishning sungida boshidagiga qaraganda 4-5 barobar koʻp boʻladi. Ona sutining bunday tarkibi bolada toʻyish xissini keltirib chiqaradi. Bu esa bolani toʻliq, oxirigacha emizish lozim ekanligini koʻrsatadi.

Koʻkrak sutida oshqozon-ichak traktini taʼsirleydigan oz miqdordagi toʻyingan yogʻ kislotalari va koʻp miqdorda (0,4 g / 100 ml) toʻyinmagan (essensial) yogʻ kislotalari - linolen va araxidon kislotalari boʻlib, ular ona sutida asosiy energiya manbai (50% gacha) boʻlib hisoblanadi.

Bu kislotalar oqsillarning xazim boʻlishini, organizmning infeksiyaga chidamliligini oshirib, miya rivojlanishiga xam taʼsir qiladi.

Ona sutidagi uglevodlar asosan alfa-laktoza shaklida boʻlib, sigir sutida esa beta-laktoza boʻladi.

Ona sutining oʻziga xos yaʼna bir tomoni bu uning osmolyarligi boʻlib u qon osmolyarligiga yaqin yaʼni 260-270 mosm/l ga teng. Bu esa ozuqaning yaxshi xazim bulishiga va gomiostazning barqaror tutishga yordam beradi. Ona sutida vitaminlar sigir sutiga nisbatdan koʻp. Ona sutidaga vitamin E ning miqdori bolaning ehtiyojini toʻliq qondiradi. Kalsiy va fosforning nisbati 2:1 boʻlib, bu bolaning suyak toʻqimasining muʼtadil oʻsishi va rivojlanishi taʼminlaydi, rux

va mis bolaning oʻsishiga, xujayra darajasida immun tizimiga taʼsir qiladi. Ona sutida shuningdek bir qator xazim jarayonlarida ishtirok etadigan aktiv fermentlar ( proteaza, trepsin, amilaza, lipaza) va qalqonsimon bez , buyrak oʻsti bezi, gipofiz va b.q garmonlar xam mavjud. 6 oygacha boʻlgan bolalarda ona suti nafaqat oziq ovqat balki suv manbai xamdir. Shuning uchun bu yoshda qoʻshimcha suv berishga extiyoj yoʻq. Tabiiy oziqlantirish bolani nerv tizimiga xam taʼsir qilib, bolani



tinchlantiradi, bola kam yigʻlaydi, injiqligi kamayadi va uyqusini meʼyorlashadi. Ona bilan bola oʻrtasidagi hissiy bogʻliqlik sutning oʻzoq muddat ajralishiga sabab boʻladi.

Koʻkrak sutining himoya vazifasi onadan bolaga ogʻiz orqali oʻtadigan passiv gumoral immunitet boʻlib, u patogen mikroflaradan bolani himoya qilishda ilk boʻgʻin boʻlib hisoblanadi.

Shunday qilib, ona suti koʻkrak yoshidagi bola uchun zarur boʻlgan barcha komponentlar (yogʻlar, uglevodlar, oqsillar), ozuqaviy mikro elementlar (vitaminlar, minerallar)ga boy ozuqa boʻlib, bolaning sogʻlom oʻsishi va rivojlanishini taʼminlaydi.

Shuning uchun koʻkrak suti dastlabki olti oy davomida barcha bolalar uchun yagona ozuqa sifatida qaraladi va 6 oylikdan keyin esa onani tuxtatmagan xolda (2 yoshgacha) qoʻyuqroq qushimcha ovqatga oʻtish tavsiya etiladi.

**Dotsent Gulsara QUDRATOVA ,**  
**Assistent Zilola XOLMURADOVA .**  
**Davolash fakulteti, pediatriya kafedresi.**

## BIRINCHI KURS TALABALARI BILAN UCHRASHUV



2021 yil 25 yanvar kuni institut kichik majlislar zalida tibbiy pedagogika fakultetini birinchi kurs talabalari bilan uchrashuv oʻtkazildi.

Fakultet dekani S.E. Mamaradjabov oʻzining murojaatida institutda talabalarni talim olishlari va oʻzlarini namoyon qilishlari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat bilan shugʻullanishlari uchun qilinayotgan ishlar haqida batafsil gapirib berdilar. Talabalar jahon standartlariga javob beradigan talim olishlari uchun faoliyat koʻrsatilayotgan mt.sammi.uz va boshqa axborot talim resurslari alohida taʼkidlanib, barcha talabalarga yaxshi bilim olish va fanlarni oʻzlashtirish boʻyicha tavsiyalar qilindi.

Ochiq muloqot davomida fakultet talabalarini barcha taklif va takliflari tinglandi. Birinchi kurs talabalari barcha berilgan savollariga javoblar oldilar.

## "XX ASR IBN SINOSI" - SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTIDA ISLOM ZOKIROV FAOLIYATIGA BAG'ISHLANGAN XALQARO ANJUMAN O'TKAZILDI

Samarqand davlat tibbiyot institutida taniqli olim, akademik, akusherlik maktabi asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tibbiyot fanlari doktori, professor Islom Zokirovning 95 yilligiga bag'ishlab "Ayol sog'lig'i - millat sog'lig'i" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.



Institutda o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada Sharja tibbiyot universiteti (BAA), Isroil tibbiyot universiteti, Rossiya Federatsiyasining N.I.Pirogov nomidagi tibbiyot ilmiy-tadqiqot universiteti, Rossiya xalqlar do'stligi universiteti, Astraxan davlat tibbiyot universiteti, Kemerovo davlat tibbiyot universitetlari, Ukrainaning Milliy tibbiyot universiteti (Odessa), Ternopol milliy tibbiyot universiteti, Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekistonning barcha oliy tibbiyot o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari

ishtirok etishdi.

Anjumanda buyuk shifokor, pedagog olimning hayot yo'li, ilmiy merosi, akusherlik-ginekologiya bo'yicha yaratgan ilmiy maktabi, ayollar va bolalar sog'lig'ini asrash bo'yicha erishilgan yutuqlar, zamonaviy akusherlik va ginekologiyaning dolzarb masalalari muhokama etildi.

Konferensiyada O'zbekiston sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Elmira Bositxonova, O'zbekiston va Rossiya fanlar akademiyasining akademigi Shavkat Karimov, Turkiyaning Sog'liq bilimlari

universiteti rektori, professor Jevdat Erdol, Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti rektori Nikolay Karyakin, Ukrainaning Ternopol milliy tibbiyot universiteti rektori Mixail Korda, Qozoq milliy tibbiyot universiteti rektori Talgat Nurgojin, Tojikiston davlat tibbiyot universiteti rektori Mahmudshoh Gulzoda, SamDTI rektori Jasur Rizayev, shuningdek, bir qator jahon ilmiy muassasalari va xususiy klinikalar rahbarlari so'zga chiqdilar.

Yalpi majlisda akademik I.Zokirovning sharaflil hayot yo'li, serqirra faoliyati, respublikamizda onalik va

bolalikni himoya qilish bo'yicha amalga oshirgan ishlari, ilmiy maktabi (80 dan ortiq fan nomzodlari va doktorlariga rahbarlik qilgan), zamonaviy akusherlik va ginekologiyaning bir qator dolzarb masalalari haqida ma'ruzalar eshitildi. Konferensiya "Onalar va bolalar sog'lig'ini saqlash - zamonaviy tibbiyotning ustuvor yo'nalishi", "Ginekologik amaliyotning dolzarb masalalari", "Perinatal tibbiyotning dolzarb masalalari", "Akusherlik va ginekologiyada shoshilinch holatlar" kabi shu'balarda davom ettirilib, ularda 80 dan ortiq dolzarb ma'ruzalar qilindi.

*Xalqaro konferensiyada anjuman ilmiy ishlarini o'zida mujassam etgan SamDTI'da nashr qilinadigan "Biologiya va tibbiyot muammolari" xalqaro jurnalining navbatdagi soni va akademik I.Z.Zokirovning "Tanlangan ilmiy asarlari" kitobining taqdimoti ham o'tkazildi. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya shubhasiz respublikamiz tibbiyotida avlodlararo ilmiy merosni asrash, tibbiyot sohasini eng zamonaviy ilmiy yutuqlar bilan boyitish, malakali tibbiyot kadrlarini tarbiyalash, tibbiyot oliygohlarini chet el universitetlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan munosabatlarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.*

SamDTI axborot xizmati.



### ILM-FAN SOHASIDA TO'G'RILIK VA ODOB MEZONLARI

**...davomi, oldingi sonda.**

Bu hammasi Puankarega qolganda avtoritet va prioritet masalalarida tarixiy adolatsizlik tufayli edi. O'z davrida uni genial olim hisoblashgan. Lekin uning bir kashfiyoti bo'yicha nohaqlik haligacha saqlanib qolmoqda. Gap shundaki nisbiylik qonunining birinchi va asosiy yaratuvchisi aynan Puankaredir. A.Eynshteynchi? Eynshteyn ushbu qonunning asoschilaridan biri, hatto mashhur  $E=mc^2$  formulasining muallifi bo'lsada, u bu yangi qonunning yagona egasi emas (Smorodinskiy Ya.A., 1978). Puankare nisbiylik prinsiplari bilan 1890 yillardan boshlab shug'ullangan, bir nechta kitob chiqargan, ma'ruzalar o'qigan. A.Eynshteyn esa 1905 yilgacha bironta chiqish qilmagan, fizikaning umuman boshqa muammolari bilan shug'ullangan; to'satdan nisbiylik nazariyasi asoslariga bag'ishlangan maqola chop qiladi. Haligacha ilm-fan tarixchilari "Eynshteyn Puankare maqolalarini o'qiganmi?" deb bahs qilishadi. Eynshteynning o'zi "xabarim yo'q edi" deb javob berib kelgan. Faqat qarigan chog'ida vijdon qiyinay boshlagan shekilli, shunchaki "Nisbiylik nazariyasini yaratishda Lorens va Puankarelarning xizmatlari bor" deb eslab o'tgan. Bu baxslardan Puankarening o'zi iztirob chekkanmi, yo'qmi endi fol ochishdan foyda yuq, lekin u bag'ri keng bo'lganligi aniq. Hatto o'nlab kashfiyotlarini boshqa ismlar bilan atagan: Betti sonlari, Kleyn guruhi, Puasson turg'unligi va boshq. U bir bor Eynshteynning ishga joylashishi uchun qo'llab-quvvatlab iltimosnoma ham yozgan ekan. Endi bugunga kelib nisbiylik nazariyasining yaratuvchilari Lorens, Puankare va Eynshteyn bo'lib, bu qatorda Puankarening xizmati, ulushi hammasidan ko'proqdir deb arz qilish zarur emasdir, ammo bu haqda eslatib o'tish adolatdan bo'ladi (A.A'zam, 2016).

Endi biologiya soxasida. Darvinizm, organik dunyoning evolyusion materialistik nazariyasi Ch.Darvin dunyoqarashi mahsuli (BSE, 7 tom, 1956). Evolyusion nazariyani ishlab chiqishni 1837 yilda boshlab, Ch.Darvin 1858 yildagina Linney jamiyati yig'ilishida tabiiy turlanish haqida ma'ruza qildi. O'sha yig'ilishda A.Uolles ham ma'ruza o'qidi, uning fikrlari Darvinniki bilan bir xil edi. Ikkala ma'ruza ham jaimyat jurnalida birga chop etildi, lekin Uolles evolyusion nazariyani Darwin o'zidan oldinroq, chuqur va to'laroq ishlab chiqqan deb, ustiga-ustak o'zining

1889 yilda nashr etilgan aossiy ilmiy ishini "Darvinizm" deb atab Darvinning prioritetini ta'kidlaydi (BSE, 44 t., 1956). Darvoke kizig'i shundaki bu ikki buyuk olimlarning bir xil bag'ri kengligi, ularning tashqi qiyofalarining o'xshashligida ham o'z isbotini topgan (6-rasm).

Ilm-fan sohasidagi bunday bahslar, munozaralar tibbiyotda, xususan urologiyada ham kam emas.

Ma'lumki urologiya amaliyotida keng tarqalgan adenomektomiya operatsiyasi qovuq (Fedorov S.A., 1909; Fuller A.O., 1905; Freyer P.S., 1901), qov orti (Lidskiy A.T., 1923; Millin N., 1945), oraliq (Guthrie G.J., 1834), ishiorektal (Voelker Fr., 1911), to'g'ri ichak (Saposhkov K.P., 1926) orqali amalga oshiriladi (Tkachuk V.N., 2011).

Barchaning fikricha rossiyada adenomektomiya

operatsiyasini birinchi bo'lib, S.P. Fedorov (7-rasm) bajargan (1909), uning bosqichlari 9,10,-rasmlarda keltirilgan.

Qo'yidagi ma'lumotlarning to'liq ishonarligiga kafolat berolmagan holda, ta'kidlash kerakki S.S. Yudin (8-rasm) tadiqlashicha bu operatsiyani S.P. Fedorovdan bir yil oldin G.L. Gar "Moszdrav Zaxarino xirurgiya sanatoriyasida amalga oshirgan". Bu haqda "Freyer bo'yicha prostatektomiya" nomi



**Alfred Russel Uolles**




**Robert Guk**


bilan "N.A. Velyaminov xirurgik arxivida" 1907 yoki 1908 yilda chop etilgan. O'zining nozik iboralari bilan buyuk xirurg S.S. Yudin G.L. Garga quyidagicha ta'rif beradi: "Haddin qo'pol va o'ylab o'tirmay operatsiya qilardi. Lekin haqiqat yuzasidan ta'kidlash kerakki, Gar qiyin va ma'suliyatli operatsiyalarni buyniga olar va muvaffaqiyat bilan amalga oshirardi". "Velyaminov xirurgik arxivi"ni varaqlab, uning bir nechta chop etgan ishlarini topdim. Uning Freyer usulidagi prostatektomiya, oshqozon raki bo'yicha rezeksiya kabi qator operatsiyalari hisobotini o'qib xayratga qolmay bo'ladimi; bu hisobotlar 1907 yoki 1908 yillarda chop etilgan edi shekilli".

Jurnalning nashr qilinishi redaktor hisobiga bo'lib, bir bor qiyinchilik tug'ilganda A.P. Chexov ham xomiylik qilgan: "Jurnalni qutqarish uchun men har kimga qulluq qilishga har qanday daxlizda kutishga tayyorman, yaxshi xirurgik jurnalni qutqarish 20 minglab omadli operatsiyalar kabi foydalidir". Jurnalning qaysidir bir tomida Rossiyada birinchi bo'lib bajarilgan qovuq orqali ochiq adenomektomiya haqidagi ilmiy hisoboti ham chop etilgan edi. Afsuski, operatsiyasining prioritetini G.L. Gar o'ylamaganidir ham. Zero, hayotda ko'p bo'lganidek yer yuzidagi oddiy insonlar yorug' nurli buyuklar soyasida qolib ketadi. Ko'ngilni to'ldiradigani shuki, kech bo'lsada, bunday tarixiy voqyealarga aniqlik kiritib, esdan chiqqan yoki o'z vaqtida e'tibor berilmagan prioritet xolatlarni ilm-fan ahliga yetkazishdir.

**Saloh ALLAZOV**  
Institut professori



**Charliz Darwin**



**Alfred Russel Uolles**

Samarqand davlat tibbiyot instituti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi institut "Anesteziologiya va reanimatsiya" kafedrasini mudiri, t.f.d. dotsent Mansur Matlubovga o'g'li

**Saidnuriddinxon Murodxonovning**

bevaqt vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi institut yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Sulaymon Halimovga onasi

**Mahkamtosh Xo'jamovanning**

vafot etganligi munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti rektorati va kasaba uyushmasi qo'mitasi institut 2-qism injeneri Mirzoxid Lutfullayevga otasi

**Saloxiddin Lutfullayevning**

vafoti munosabati bilan chuqur hamdardlik bildiradi.

## SamDTI quyidagi lavozimlariga tanlov e'lon qiladi

### DAVOLASH ISHI FAKULTETI

**Onkologiya** kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;  
 asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;  
**Ftiziatriya** kafedrası, Katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**4-son ichki kasalliklar** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Sud tibbiyoti** kafedrası, dotsent lavozimiga - 2 o'rin;  
**Anesteziologiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Patologik anatomiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Davolash fakulteti pediatriya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;  
**Akusher ginekologiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;  
**1-son ichki kasalliklar** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

### PEDIATRIYA FAKULTETI

**Klinik laboratoriya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Oftalmologiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**3-pediatriya va tibbiy genetika** kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;  
**1-son pediatriya** kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;  
**Nevrologiya** kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;  
 Katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

### TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGIVA TIBBIYBIOLOGIYA FAKULTETI

**Jamoat salomatligi** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Fiziologiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Odam anatomiyasi va OXTA** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;  
**Jamoat salomatligi va sog'liqni saqlash menejment** kafedrası, Katta o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin.

**Kafedra mudiri** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

**Dotsent** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin

#### Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti Davolash fakulteti OCHIQ MA'RUZA

**Mavzu:** O'choqli pnevmoniyalar. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi laborator-instrumental diagnostikasi

**Ma'ruzachi:** 4-ichki kasalliklar kafedrası kafedra mudiri, PhD. M.B. Xoljigitova.

**Ekspertlar:** Prof. t.f.d Tashkenbayeva E.N., Dotsent. Ziyadullayev SH.X

**Sanasi:** 11.02.2021 y. soat 13:10 da

**O'tkazish joyi:** Kafedra ma'ruza zalida

**Taklif qilinglar:** Davolash fakulteti V-kurs 525-528 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, bo'lim terapeftlari, poliklimka vrachlari, dekanat ma'sul xodimlari, institutning terapevtik kafedralari xodimlari va hohlovchilar.

SAMARQAND - 2021

### STOMATOLOGIYA FAKULTETI

**Otorinolaringologiya** kafedrası, Katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.  
**Yuz-jag' xirurgiya** kafedrası, asisstant lavozimiga - 1 o'rin.

### OLIY HAMSHIRALIK ISHI FAKULTETI

**Teri-tanosil kasalliklar** kafedrası asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**Jismoniy tarbiya va sport** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;  
**3-ichki kasalliklar kafedrası endokrinologiya** kursi bilan, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

### FARMATSIYA FAKULTETI

**Tibbiy kimyo** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 4 o'rin.  
**Biokimyo** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 5 o'rin.

### TIBBIY PEDAGOGIKA

**Pedagogika va psixologiya** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin.  
**O'zbek tili adabiyoti va rus tili** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin.  
**Tibbiy va biologik fizika** kafedrası, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 3 o'rin.  
**Tillar** kafedrası, dotsent lavozimiga - 1 o'rin.

### DIPLOMDAN KEYINGI TALIM FAKULTETI

**Travmatologiya va ortopediya** kursi, v.b. dotsent lavozimiga - 1 o'rin.  
**Psixiatriya** kursi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin.  
**Xirurgiya, endoskopiya, anesteziologiya va reanimatsiya** kursi, asisstant o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin.

**Asisstant o'qituvchi** lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin. Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

SamDTI Ilmiy kotibi.

#### Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti Davolash fakulteti OCHIQ MA'RUZA

SamDTI 2-xirurgik kasalliklar va urologiya kafedrasida 2021-yil 27-yanvar kuni urologiya fanidan soat 11:30 da ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

**Mavzu:** Ayollarda siydikni tuta olmaslik.

**Ma'ruzachi:** SamDTI 2-xirurgik kasalliklar va urologiya kafedrasining professori, t.f.d. Allazov S.A.

**Manzil:** Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filiali majlislar zali (2-qavat).

**Taklif qilinganlar:** Tibbiy pedagogika fakulteti 405-408 guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrlar, bo'lim vrachlari, viloyat urologiya ilmiy jamiyati a'zolari, ginekologlar, nevropatologlar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.

SAMARQAND - 2021

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'U.U. LUTFULLAEV,

S.A. KARABAEV,

S.E. MAMARADJABOV,

A.A. AXMEDOV,

J.F. KADIROV.

### SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:  
 N. MUSURMANOV

Operator va sahifalovchi:

A. KELDIYAROV

Fotomuxbir:

O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

**MANZIL:** Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.  
 Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75  
 e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.  
 Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 25 yanvar. Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 17